

Ohaktoshli, mineral, g'ovak va qo'pol fakturalarni mustahkamlovchi va himoya qiluvchi yakuniy qatlam. Suv asosidagi yengil akril tarkib. Travertin, polimer beton, Florentin, San Pyer va mustahkamlash talab qilinadigan boshqa g'ovak fakturalarga qo'llaniladi.

SIRTNİ TAYYORLASH

Yuza quruq va toza ekanligiga, hamda barcha oldingi dekorativ yoki bo'yoq qatlamlari yaxshi quriganiga ishonch hosil qiling. Material ranglanmaydi va sof holatda ishlatiladi.

 **Ishdan oldin yaxshilab chayqatib oling!**
Zarurat bo'lsa suv bilan 5-10% miqdorda suyultiring.

SURTISH



Akva-fiksatorni valik yoki cho'tka yordamida bir yoki ikki qatlam qilib surting. Faqat ichki binolarda qo'llaniladi. Tegis fakturalar uchun velyur yoki qisqa tukli mikrofibra yoki poliamid valik (8-12 mm) ishlatiladi. Chuqur relyefli suvoq uchun maklovitsa yoki maxsus fasad valigi (tuk uzunligi 16-18 mm) ishlatiladi.

1-QADAM

Valikni kyuvetada bir tekis namlang, ortiqcha materialni ribli qismda siqib, nam, lekin oqmaydigan holatga keltiring.

2-QADAM

Yuzani kesishuvchi harakatlar bilan yoping.

3-QADAM

Darhol, qo'shimcha material qo'shmasdan, uzun harakatlar bilan qatlamni bir yo'nalishda tekislang.

4-QADAM

Yengil, bosimsiz harakatlar bilan yakuniy yoʻnalishda (odatda yuqoridan pastga) ishlang. Bu ortiqcha materialni olib tashlaydi, qatlamni tekislaydi va bir xil matlikni taʼminlaydi.

5-QADAM

Keyingi uchastkani oldingisi hali nam boʻlgan paytda yonma-yon surting.

Yakuniy tekislashni ikki uchastka chegarasidan bir harakat bilan bajaring, oʻtish sezilmas boʻladi. Yuza bir xil nam yaltiroqlikka ega boʻlishi, alohida chiziq yoki dogʻlarsiz boʻlishi kerak.



**Qoʻllash harorati +10°C dan past boʻlmasligi kerak.
Asboblarni suv bilan tozalanadi.**